ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

KOREYS TILIDA “OVQATLANISH”GA ALOQADOR FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY ASPEKTI

Madina Komiljon qizi Nazarova
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti stajer-o‘qituvchisi
madina.nazarova00@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning frazeologiya sohasi, uning shakllanish tarixi, somatizmlar ishtirok etgan iboralarning zamonaviy tilshunoslikda o‘rganilganlik darajasi, o‘rganish masalalari hamda muammolariga alohida to‘xtalgan. Somatizmlar ishtirokidagi iboralarning o‘ziga xosligi, shu bilan birga inson ruhiy, hissiy, jismoniy holatini ifodalashda somatizmlarning ahamiyati haqida so‘z boradi. Iboralar qay bir tilda bo‘lmasin, eng muhim va o‘ziga xos birliklari hisoblanadi. Ular orqali butun bir xalqning tarixi, madaniyatini o‘rganish mumkin. Maqola doirasida “og‘iz” somatizmi ishtirok etgan iboralarning “ovqatlanish” bilan bog‘liq bo‘lgan lingvomadaniy aspektlari, ularni zamonaviy tilshunoslikda o‘rganish masalalari va mazkur iboralarda inson obrazi va xarakterining namoyon bo‘lishiga oid ilmiy ishlarni tahlil qilgan holda, misollar orqali lingvomadaniy jihatdan yondashgan holda yangi xulosalarni berishdan iborat.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, somatizm, frazeologizm, frazeologik birlik (FB), somatik frazeologik birlik – SFB, lingvomadaniyat, semantika.

LINGUOMADICAL ASPECTS OF PHRASEOLOGICAL UNITS RELATED TO "NUTRITION" IN KOREAN

ABSTRACT

This article focuses on the field of phraseology of modern linguistics, the history of its formation, the degree of study of phrases involving somatisms in modern linguistics, the issues and problems of study. The peculiarity of the expressions involving somatisms, as well as the importance of somatisms in expressing the mental, emotional and physical state of man. Phrases are the most important and unique units in any language. They can be used to study the history and culture of an entire nation. The article analyzes the linguocultural aspects of the phrases involved in the "oral" somatism associated with "nutrition", the problems of their study in modern linguistics and the scientific work on the expression of human image and character in these expressions. is to draw new conclusions through a linguocultural approach.

Keywords: phraseology, somatism, phraseology, phraseological unit (FB), somatic phraseological unit - SFB, linguoculture, semantics.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

KIRISH

O‘zga xalqlarning turmush tarziga qiziqish azaldan mavjud. Odamlar har doim boshqa xalqning hayoti va turmush xususiyatlarini anglab yetishga harakat qilganlar. Bunday anglab yetish yo‘llaridan biri til orqali, ayni holda – FBlar orqali anglab yetishdir. Frazeologiya sohasida mamlakatshunoslikka oid xususiyatlar ayniqsa bo‘rtib namoyon bo‘ladi, unda u yoki bu xalq hayoti va turmushining milliy o‘ziga xosligi aks etadi. Mamlakat tarixi, geografiyasi, iqtisodiyoti, turmush tarzi faktlari – bularning barchasi ko‘p sonli FBlar semantikasida aks etadi, ya’ni frazeologizmlarning milliy – madaniy semantikasi to‘g‘risida so‘z yuritish imkonini beradi. Bugungi kunda bu aksariyat lingvistlar tomonidan e’tirof etilgan. Bunda u yoki bu til frazeologiyasining katta qatlami aynan milliy zaminda vujudga kelishi ta’kidlanadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Koreys tili frazeologiyaga boy. FBlar, maqollar va barqaror iboralarning ko‘p sonli to‘plamlari va lug‘atlari shundan dalolat beradi. Dastlabki tadqiqot ishlari asosan frazeologizmlarning kelib chiqishi va ma’nosini tushuntirishga bag‘ishlangan. Koreys tilida ko‘p sonli FBlar o‘rta asrlardagi odamlar hayoti, dehqonlar turmushi va mehnati natijasida qaror topgan. Har bir xalq frazeologizmlarning obrazli asosini yaratish uchun o‘z mahalliy, o‘ziga xos voqeligidan foydalanadi. Obrazlar mazkur xalqni qurshagan muhitdan olinadi, FBlarning ma’nolari va ularning konnotatsiyalari esa mazkur til jamoasida chuqur ildiz otgan an’analar asosida rivojlandi. Somatizmlarni o‘z ichiga olgan frazeologizmlar dunyoning madaniy manzarasini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Shuning uchun ham milliy – madaniy munosabatda farqlanadi va mazkur ma’lumotlarni o‘zida aks ettiradi. Umuman koreys tilshunosligida SFBlarning ahamiyati katta. “Bosh va unda joylashgan tana a’zolari”ning har biri koreys lingvomadaniyatida o‘z tarifiga egadir. Ma’lumki, bosh tananing eng muhim qismi yuz hisoblanadi. Shuningdek, miya bosh suyagida, asosiy sezgi organlari esa (ko‘z, quloq, burun, og‘iz va til) yuzda joylashgan. Koreys tilshunosligida SFBlarning ahamiyati katta. “Bosh va unda joylashgan tana a’zolari” ning har biri koreys lingvomadaniyatida o‘z tarifiga egadir. Ulardan biri og‘iz– nafaqat koreys lingvistlari, balki jahon lingvistlari tomonidan ta’kidlanganidek, qaysidir darajada gapirish – so‘zlashish bilan birga “ovqatlanish”ga bog‘liq a’zo sifatida tanilgandir.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

Agar og‘iz so‘zlashish organi sifatida insonning nutqini yetkazib beruvchi bir vosita sifatida qaralsa, uning “ovqatlanish/oziqlanish” vazifasi esa insonning ichki organiga “taom” yetkazib beruvchi bir element sifatida ta’riflash mumkin.

“입/og‘iz” leksemali FBlarning ikkinchi darajali “Ovqat va ovqatga aloqador” ma’noviy guruhi – navbatdagi ichki semantik guruhlarga ajratiladi:

– ovqatga qaysar (음식에 까다롭다);

– och qolmoq (굶다);

– qorni ochmoq (먹고 싶다);

– ko‘p yemoq (많이 먹다);

– kam yemoq (적게 먹다);

– ovqatga didi nozik (입이 높다);

– mazali ovqat (맛있는 음식);

– bir xil narsa yemoq (같은 것을 먹다);

– og‘ziga yoqadigan narsa yemoq (입에 맞다);

– yemoq (먹다);

– ovqat talab qilmoq (음식을 요구하다);

– tanlamasdan yemoq (가리지 않다);

– yana yemoq (또 먹다)

– ishtaxasi yaxshi (입맛이 좋다);

– yaxshi yemoq (잘 먹다).

Ovqatga qaysar (음식에 까다롭다) - mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입에 되다 – so‘zma – so‘z “og‘ziga o‘lchamoq”, ya’ni “ovqatga qaysar”, masalan: 별로 좋지 않은 가정 형편에 남편이 입이 되어 여자가 무척 고생이 심한 모양이야 - so‘zma – so‘z - “Turmush tarzi unchalik yaxshi bo‘lmagan oilada erning og‘zi o‘lchamliligi tufayli xotini juda qiynalardi”, ya’ni “Turmush tarzi

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

unchalik yaxshi bo‘lmagan oilada erning ovqatga qaysarligi tufayli xotini juda qiynalardi”.

입이 밭다 - so‘zma – so‘z “og‘zi tarang”, ya’ni “ovqatga qaysar”, masalan: 밥 힘으로 자가(궐 밖에 나가 사는 왕녀의 존 칭)께서 아기씨 적부터 입이 밭더니 여태도 그렇다는 둥 군말을 늘어놓던 사람이었거늘 - so‘zma so‘z – “Guruchning kuchi bilan yashayotgan farzandi(saroydan tashqarida yashayotgan Chon xonim) yoshligidan og‘zi tarangligi uchun hozirgacha ham tanlab yeydigan odam edi”, ya’ni “Guruchning kuchi bilan yashayotgan farzandi(saroydan tashqarida yashayotgan Chon xonim) yoshligidan ovqatga qaysarligi uchun hozirgacha ham tanlab yeydigan odam edi“.

입이 짧다 – so‘zma – so‘z “og‘zi qisqa”, ya’ni “ovqatga qaysar”, masalan: 몇 해 전만 해도 병치레가 잦고 입이 너무 짧아 걱정이었는데 시간이 지날수록 점점 양이 많아졌고 먹는 모양새마저 탐스러웠다 - so‘zma – so‘z “Bir necha yildan oldin ham kasallanib og‘zi juda qisqa deb xavotirlangandim, ammo vaqt o‘tgani sari sekin – asta miqdori ko‘payib, yeyishi sal ko‘zga tashlanib qoldi”, ya’ni “Bir necha yildan oldin ham kasallanib ovqatga qaysarlanib qoldi deb xavotirlangandim, ammo vaqt o‘tgani sari sekin – asta miqdori ko‘payib, yeyishi sal ko‘zga tashlanib qoldi”.

NATIJALAR

Demak, koreys tilshunosligida “ovqatlanish” semantikasi FBlarda quyidagi obrazlar bilan bog‘lanadi:

– o‘lchash harakati bilan, ya’ni o‘lchab yeydi, duch kelgan narsani yemaydi ma’nosida;

– taranglik holati bilan, ya’ni og‘iz tarang, shuning uchun har narsa ham kiravermaydi ma’nosida;

– qisqa – uzunlik o‘lchovi orqali ifodalanadi.

Och qolmoq (굶다) - mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입에 거미줄을 치다 – so‘zma – so‘z “og‘ziga o‘rgimchakto‘r to‘qimoq”, ya’ni “och qolmoq”, masalan: 설마 그 돈 없다고 산 입에 거미줄 치랴, 눈 딱 감고

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

바치고 나니까 생전 처음 사람 노릇 해 본 것 같애서 이렇게 어깨가 다 펴지는 기분일세 - so‘zma – so‘z – “Naxotki, pul yo‘q deb yashayotgan og‘izga o‘rgimchakto‘r to‘qisa, ko‘zni chirt yumib ochgach, hayotni yangidan boshlayotgandek xuddi yelka yoyilgan kayfiyat bo‘ladi”, ya’ni “Naxotki, pul yo‘q deb och qolsa, ko‘zni chirt yumib ochgach hayotni yangidan boshlayotgandek kayfiyat bo‘ladi”.

입에 풀칠하다 – so‘zma – so‘z “og‘zi yiringlamoq”, ya’ni “och qolmoq”, masalan: 그나마 정수동의 아내가 바느질을 하여 겨우 입에 풀칠을 하는 형편이었다 - so‘zma – so‘z – “Chong Su Dongning xotini tikish – bichish bilan zo‘rg‘a och qolmayotgan edi”, ya’ni “Chong Su Dongning xotini tikish – bichish bilan zo‘rg‘a kun ko‘rayotgan edi”.

Tahlilga ko‘ra koreys tilshunosligida “och qolish” semantikasi FBlarda quyidagi obrazlar bilan bog‘lanadi:
– o‘rgimchak to‘r to‘qishi harakati bilan, ya’ni to‘r og‘izga to‘qilsa, ovqatlanishning imkoni bo‘lmaydi;
– yiringlash bilan, ya’ni kasallik orqali yemaganning oqibatida og‘iz yiringlashi bilan ifodalanadi.

Qorni ochmoq (먹고 싶다) – mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입이 궁금하다 – so‘zma – so‘z “og‘zi qiziqmoq”, ya’ni “qorni ochmoq”, masalan: 그래서 아이들은 뛰어놀다가 허기가 지거나 입이 궁금하면 꽃잎을 따 먹고 삐비를 뽑아 먹거나 찔레순을 꺾어 먹곤 했다 - so‘zma – so‘z - “Shuning uchun bolalar yugurib o‘ynab ochiqsa yoki og‘zi qiziqsa barglarni uzib yeyishar, na’matak shoxini uzib yeyishar ham edi”, ya’ni - “Shuning uchun bolalar yugurib+-o‘ynab qorni ochsa barglarni uzib yeyishar, na’matak shoxini uzib ham yeyishar edi”.

입이 심심하다 – so‘zma – so‘z “og‘zi zerikmoq”, ya’ni “qorni ochmoq”, masalan: 그런데어느 순간 입이 심심하거나 배가 엄청 고플 때는 된장찌개가 생각났다 - so‘zma – so‘z – “Lekin ba’zida og‘zim zeriksa yoki qornim juda ochganda tenjangchige esimga tushar edi”, ya’ni “Lekin ba’zida qornim ochsa tenjangchige esimga tushar edi”.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

Demak, koreys tilshunosligida “qorin ochish” semantikasi FBlarda quyidagi obrazlar bilan bog‘lanadi:
– qiziqish holati bilan, ya’ni nimadir yegisi kelish;
– zerikish holati bilan, ya’ni qorni ochganda og‘zi zerikadi ma’nosi bilan ifodanaladi.

Ko‘p yemoq (많이 먹다) – mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입이 광주리 만하다 – so‘zma – so‘z “og‘zi savatdek kelmoq”, ya’ni “ko‘p yemoq”, masalan: 사실 오늘의 이 싸움에 있어선, 자기 딴은 입이 광주리만해도 고씨가 그쯤들이 폭로를 시키는 데야 꼼짝 못하고 되 잡히게만 경우가 되어 먹었습니다 - so‘zma – so‘z - “Rosti bugungi janjalda o‘zi og‘zi savatdek kelsa ham, janob Ko umuman qimirlay olmay xech narsa yeyolmay qolgan edi”, ya’ni “Rosti bugungi janjalda o‘zi ko‘p yesa ham, janob Ko umuman qimirlay olmay xech narsa yeyolmay qolgan edi”

입이 늘다 – so‘zma – so‘z “og‘zi ko‘paymoq”, ya’ni “ko‘p yemoq”, masalan: 그러므로 이미 있는 지방 공업 직장들을 잘 정비 보강하고 생산을 정상화한다면 한 해 동안에 많은 재 정수 입을 늘일 수 있다 - so‘zma – so‘z – “Shunday qilib, avvaldan mavjud bo‘lgan uchuvchi ishchilarga yaxshi maosh to‘lab, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ysak, bir yil davomida barchaning og‘zini ko‘paytirishimiz mumkin”, ya’ni “Shunday qilib, avvaldan mavjud bo‘lgan uchuvchi ishchilarga yaxshi maosh to‘lab, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ysak, bir yil davomida barchani ko‘p yedirishimiz mumkin”.

MUHOKAMA

Tahlil natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, koreys tilshunosligida “ko‘p yemoq” semantikasi quyidagi obrazda namoyon bo‘ladi:
– og‘izni predmetga - savatga o‘xshatish, ya’ni katta og‘iz;
– ko‘payish sifati bilan, ya’ni ovqat miqdorining ko‘payishi.

Kam yemoq (음식의 양과 적게 먹음) – mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입에 붙이다 – so‘zma -so‘z – “og‘izga yopishmoq”, ya’ni “kam ovqat”, masalan: 성미는 자랑스럽게 눈을 빛내는 태민을 끌어안았다 놓으며 이마를 콩

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

부딪쳤다. «한 장 가지고 누구 입에 붙이라고, 더 따» - so‘zma – so‘z “Songmi mag‘rurlanib ko‘zi yonib turgan Taeminni quchoqlab qo‘yib, peshonasiga mosh bilan urib qo‘ydi. “Bitta bilan kimni og‘ziga yopishtirasan, yana uz”, ya’ni “Songmi mag‘rurlanib ko‘zi yonib turgan Taeminni quchoqlab qo‘yib, peshonasiga mosh bilan urib qo‘ydi. “Bitta bilan kimni to‘yg‘azasan, yana uz”.

입을 덜다 – so‘zma – so‘z – “og‘zini kamaytirmoq ”, ya’ni “kam yemoq”, masalan: 선자 아버지가 어느 양반 댁 행랑아범 종년이었는 데, 가난한 식구의 입을 덜려고 어렸을 적 떠맡기다시피 학교에 보내진 아이였다 - so‘zma – so‘z - “Sonjaning otasi qaysidir zodagonning uyida ishchi bo‘lib, nochor oilasining og‘zini kichraytirish maqsadida yoshligida maktab internatga jo‘natilgan bola edi”, ya’ni “Sonjaning otasi qaysidir zodagonning uyida ishchi bo‘lib, nochor oilasini kam yedirish maqsadida yoshligida maktab internatga jo‘natilgan bola edi”.

Koreys tilshunosligida “kam yemoq” tushunchasi quyidagi tarzda ifodalanadi:
– yopishish harakati bilan, ya’ni juda kam miqdorda bo‘lgani uchun ovqat og‘izga yopishmaydi;
– kamaytirish harakati bilan, ya’ni ovqat miqdorini kamaytirish kabilar bilan ifodalanadi.

Ovqatga didi nozik (입이 높다) – mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입이 높다 - so‘zma – so‘z “og‘zi baland”, ya’ni “ovqatni tanlab yemoq”, masalan: 저 친구는 입이 높아서 고급 음식점이 아니면 가지도 않고 입에 안 맞으면 돈도 안 낸단 말야 - so‘zma – so‘z “Uning og‘zi balandligi uchun oliynasab joy bo‘lmasa bormaydi, og‘ziga yoqmasa pulini ham to‘lamaydi”, ya’ni “Uning didi juda nozikligi uchun oliynasab joy bo‘lmasa bormaydi, og‘ziga yoqmasa pulini ham to‘lamaydi”.

입이 서울 – so‘zma – so‘z “og‘zi - Seul”, ya’ni “faqat yaxshi ovqat yemoq”, masalan: 윤재현은 입이 서울이라서 식탁 위에 차려 놓은 음식을 돌아보지도 않았다 - so‘zma – so‘z – “Yun Je Hyon og‘zi Seul bo‘lgani uchun, stol ustiga qo‘yilgan ovqatlarga qayrilib ham qaramadi”, ya’ni “Yun Je Hyon didi nozik bo‘lgani uchun, stol ustiga qo‘yilgan ovqatlarga qayrilib ham qaramadi”.

Demak, koreys tilshunosligida “didi noziklik” quyidagicha ifodaladi:

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

– balandlik, ya’ni didi baland, xohish-istaklari baland;
– shahar nomi, ya’ni Seul – Koreyaning poytaxti, rivojlangan markaziy shahar bo‘lib, og‘zi – Seuldek degani didi kuchlilikni bildiradi.

Bir xil narsa yemoq (같은 것을 먹다) - mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입에 달고 다니다 – so‘zma – so‘z “og‘ziga yopishtirib yurmoq”, ya’ni “faqat bir xil narsa yemoq”, masalan: 그러나 수호는 더는 옥이 술을 입에 달고 다니는 것을 보고 싶지 않았다. “금주. 약속 지킨다고 했지?” – so‘zma - so‘z “Lekin Suho aroqni og‘ziga ilib yurganini ko‘rishni istamadim. Mumkin emas. Va’dangda turasan – a?”, ya’ni “Lekin Suho faqat aroqni ichib yurganini ko‘rishni istamadim. Mumkin emas. Va’dangda turasan – a?”

“Bir xil narsa yemoq” tushunchasi koreys tilshunosligida quyidagi obrazda namoyon bo‘ladi: – og‘ziga ilib yurish harakati bilan, ya’ni boshqa narsani yemaydi, faqat bir narsani og‘zidan tushirmay ilib yuradi ma’nosida keladi.

Mazali ovqat (맛있는 음식) - mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입에 달라붙다 – so‘zma – so‘z “og‘ziga yopishmoq”, ya’ni “shirin ovqat”, masalan: 백의 가물을 떠오다가 자신이 먼저 한 모금 마시려고 했는데 그만 물 그릇이 그의 입에 달라붙은 채 떨어지지 않는 것이다 - so‘zma – so‘z “U zo‘rg‘a buloq boshiga yetib suv ichganda, idish og‘ziga yopishib qolgancha qaytib tushmadi”, ya’ni “U zo‘rg‘a buloq boshiga yetib suv ichgandi, suv shunchalik mazali tuyildiki og‘zidan qaytib tushmadi”

Koreys tilshunosligida mazali ovqat tushunchasi og‘izga yopishib qolish harakati bilan anglashiladi.

Og‘ziga yoqadigan narsa yemoq (입에 맞다) – mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입에 맞다 - so‘zma – so‘z “og‘ziga mos”, ya’ni “og‘izga yoqmoq”, masalan: 사돈도 부잣집에 시집갔는데 이런 게 입에 맞겠냐? 너나 맛있게 먹어 - so‘zma – so‘z “Sadon ham boy oilaga kelin bo‘ldi, bunday narsa og‘ziga mos kelarmikan? Sen yeyaver”, ya’ni “Sadon ham boy oilaga kelin bo‘ldi, bunday narsa og‘ziga yoqarmikan? Sen yeyaver”.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

Og‘izga yoqadigan narsani tanovul qilish koreys tilshunosligida mos kelish holati bilan ifodalanadi.

Yemoq (먹다) – mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입을 대다 – so‘zma – so‘z “og‘izni tekkizmoq”, ya’ni “yemoq”, masalan: 그리고 분수처럼 솟구치는 경동맥에 입을 대고 피를 받아서 마시기 시작했다 - so‘zma – so‘z “Hamda sharsharadek otilayotgan arteriyaga og‘zini tekkizib qonni olib, ichishni boshladi”, ya’ni “Hamda sharsharadek otilayotgan arteriyadagi qonni olib, ichishni boshladi”

Yuqoridagi misoldan shuni ko‘rib turibmizki, koreys tilshunosligida “yemoq” semantikasi tekkizish harakati bilan ifodalanadi.

Ovqat talab qilmoq (음식을 요구하다) - mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입을 벌리다 – so‘zma – so‘z “og‘zini yoymoq”, ya’ni “ovqat so‘rash/talab qilish”, masalan: 먹을 것이 없어도 남 앞에서 입 벌리는 법이 없다 – so‘zma – so‘z – “Yeyishga narsa bo‘lmasa ham begonalar oldida og‘zimni yoymayman”, ya’ni “Yeyishga narsa bo‘lmasa ham begonalar oldida ovqat talab qilmayman”.

Demak, koreys tilshunosligida ovqat talab qilish tushunchasi quyidagicha ifodalanadi yoyish harakati bilan, ya’ni ovqat so‘rab og‘iz ochish/yoyish kabilar bilan.

Tanlamasdan yemoq (가리지 않다) - mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입이 길다 – so‘zma – so‘z “og‘zi uzun”, ya’ni “tanlamay yemoq”, masalan:

– 오이 비슷한 것도요. 비린 거 못 먹어요.
– 입이 짧네요.
– 입 길어서 뭐 하게요.
– 그럼 양파를 같이 먹어요. 소화가 잘되니까요 , so‘zma – so‘z:
– Bodringga o‘xshash narsa ham yeyolmayman.
– Og‘zingiz qisqa ekan.
– Og‘zim uzun bo‘lsa nima ham qilardim.
– Unda ko‘k piyoz bilan yeng, yaxshi hazm bo‘ladi, ya’ni:
– Bodringga o‘xshash narsa ham yeyolmayman.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

– Tanlab yer ekansiz.
– Tanlamasdan yeb nima ham qilardim.
– Unda ko‘k piyoz bilan yeng, yaxshi hazm bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, koreys tilshunosligida tanlamasdan yeyish quyidagicha ifodalanadi uzunlik bilan, ya’ni og‘zi uzunligi uchun hamma narsa kirib ketaveradi.

Yana yemoq (또 먹다) - mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입이 냠냠거리다 – so‘zma – so‘z “og‘zi alangalamoq ”, ya’ni “yana yegisi kelmoq”, masalan: 세실이 조심스레 묻자 소녀가 고개를 연신 끄덕이더니 쿠키를 하나 입에 넣었다. 맛있게도 입을 냠냠거리면서 먹었다 , so‘zma – so‘z “Seshil extiyotlik bilan so‘ragach, qiz yelkasini qimirlatib keksni og‘ziga soldi. Mazali deb og‘zi alangalanib yedi”, ya’ni “Seshil extiyotlik bilan so‘ragach, qiz yelkasini qimirlatib keksni og‘ziga soldi. Mazali deb yana yegisi keldi.”

Demak, koreys tilshunosligida “yana yemoq” tushunchasi quyidagi obrazda namoyon bo‘ladi alangalanish holati bilan, ya’ni yana yegisi kelib og‘zi alangalanadi.

Ishtaxasi yaxshi (입맛이 좋다) - mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha:

입이 달다 – so‘zma – so‘z “og‘zi shirin”, ya’ni “ishtaxasi yaxshi”, masalan: 식혜는 입으로 달게 먹게 하는 것이니, 입이 달면 기운이 편안하고, 입 이 쓰면 음식을 있어서 치료할 수가 있는데, 어찌 쓰고 시다거나 마른 풀이나 썩은 뿌리라고 핑계하겠는가? – so‘zma -so‘z – “Shikheni shirin qilib yeydi, og‘zi shirin bo‘lsa, ko‘ngli ham hotirjam, og‘zi taxir bo‘lsa davolash ham qiyinashadi, endi taxir yoki shirinligini baxona qilish to‘g‘ri bo‘larmikin?”, ya’ni “Shikheni shirin qilib yeydi, ishtaxasi yaxshi bo‘lsa, ko‘ngli ham hotirjam, ishtaxasi bo‘lmasa bo‘lsa davolash ham qiyinashadi, endi taxir yoki shirinligini baxona qilish to‘g‘ri bo‘larmikin?”

Ko‘rinib turibdiki, koreys tilshunosligida “ishtaxasi yaxshi” tushunchasi quyidagicha ifodalanadi shirin ma’za bilan, ya’ni og‘izning shirinligi bilan ifodalanmoqda. Yaxshi yemoq (잘 먹다) - mazkur guruhda FBlarning semantik ifodalanishi quyidagicha: 입이 풍년을 만나다 – so‘zma – so‘z “og‘zi hosil bilan

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

uchrashmoq”, ya’ni “yaxshi ovqatlanmoq”, masalan: 밥도 없어서 아이들이 게걸대고 , 식구들은 벌거 벗은 적신이 되어 살을 가릴 옷이 없건만 이렇게 병정으로 나설 때는 입이 풍년을 만나서 덩달아 조빼 었다 - so‘zma – so‘z – “Guruch yo‘qligi sababli bolalarim och, oila a’zolarim kiyishga bir kiyimi yo‘q paytda meni og‘zim hosil bilan uchrashganidan uyalardim”, ya’ni “Guruch yo‘qligi sababli bolalarim och, oila a’zolarim kiyishga bir kiyimi yo‘q paytda men yaxshi ovqatlar yeyotganimdan uyalardim”.

Demak, koreys tilshunosligida yaxshi ovqatlar yeyish tushunchasi:

– hosil bilan uchrashish, ya’ni og‘zi xuddi hosil olgandek to‘la bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Umuman koreys tilida “ovqat va ovqatlanishga aloqador” harakatlar “og‘iz” leksemasidan iborat bo‘lgan FBlarda qay tarzda, qay holatda, qanday so‘z birikmalari, til birliklari bilan ifodalanashi turli misollar yordamida batafsil yoritildi.

– “ovqat va ovqatga aloqador” harakatlar guruhida kichik semantik guruhlarga bo‘lingan FBlar ajratildi hamda ular orasida oppozitsion munosabatga kirishuvchi guruhlar (“ko‘p yemoq – kam yemoq” va “tanlamasdan yemoq – ovqatga qaysar”) ajratib ko‘rsatildi;

– tahlil natijasida koreys tilidagi “입/og‘iz” leksemasi ishtirokidagi FBlar “ovqatlanish”ga doir ma’no guruhlarda quyidagi obrazda namoyon bo‘ladi: sifat, o‘lchov birligi, holat, shakl, maza – ta’m, uzunlik o‘lchov birligi va hokazolar;

XULOSA

Umuman koreys tilida “ovqat va ovqatlanishga aloqador” harakatlar “og‘iz” leksemasidan iborat bo‘lgan FBlarda qay tarzda, qay holatda, qanday so‘z birikmalari, til birliklari bilan ifodalanashi turli misollar yordamida batafsil yoritildi.

– “ovqat va ovqatga aloqador” harakatlar guruhida kichik semantik guruhlarga bo‘lingan FBlar ajratildi hamda ular orasida oppozitsion munosabatga kirishuvchi guruhlar (“ko‘p yemoq – kam yemoq” va “tanlamasdan yemoq – ovqatga qaysar”) ajratib ko‘rsatildi;

– tahlil natijasida koreys tilidagi “입/og‘iz” leksemasi ishtirokidagi FBlar “ovqatlanish”ga doir ma’no guruhlarda quyidagi obrazda namoyon bo‘ladi: sifat, o‘lchov birligi, holat, shakl, maza – ta’m, uzunlik o‘lchov birligi va hokazolar.

ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-267-278

REFERENCES

1. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиѐти. – СамДУ, 2013. 37 б.
2. Рустамова М. М. Италян ва ўзбек тилларида соматик фразеологизмлар: ф. ф. н. дисс. – Самарканд, 2016. 180 б.
3. Усманова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: ф. ф. н. дисс. – Тошкент, 1998.
4. Алефиренко Н. Ф. Фразеология в системе современного русского языка. - Волгоград: Перемена, 1993. С 152.
5. Алефиренко, Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: учеб. пособие / Н.Ф. Алефиренко. – М.: Флинта: Наука, 2010. С 399.
6. Чой Юн Хи Внутренняя форма соматических фразеологических единиц русского языка: в сопоставлении с фразеологическими единицами корейского языка, дисс. …канд. филол. наук. – М., 2001. С 50 – 60.
7. Габрусенко Т.В. Эти непонятные корейцы, - М.: Муравей, 2003. С 81.
8. 月刊朝鮮 - Том 12, 1991.
9. 고든 무림서차원 10(완결) M. 2019.
10. 멸문가 외동딸 1, 개밥별 · 2020.
11. 박재학 ·알바트로스(전 8 권,완), 2009.
12. 세라 워터스 핑거스미스. 2015.
13. 최미령 여자이니까 2/2 . 2015.
14. 정은숙 하트 게임. 2020
15. 제국을 향해 쏴라! 17(완결) 아모리아. 2020
16. 최기억 찔린 가시. 2018